SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK
ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ
UO'K: 9:433:908

XAYRULLAYEVA DILNOZA NARZULLAYEVNA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
E-mail:xayrullayevadilnoza@218gmail.com

QORAXONIYLAR DAVLATI: XITOY, UYG'UR VA YEVROPA TADQIQOT MAKTABLARINING QARASHLARI QIYOSIY TAHLILI

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada Xitoy Xalq Respublikasida Qoraxoniylar xoqonligi tarixini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilingan. Asosiy e'tibor 1980-yillardan so'ng mazkur mavzuga oid izlanishlarning faollashuvi, xususan, professor Vey Liangtao, Lyu Chjishyao va Hoji Nurhoji kabi olimlarning ilmiy faoliyatiga qaratilgan. Vey Liangtaoning "Qoraxoniylar tarixidan bayon" nomli asarida Qoraxoniylar davlati bilan o'sha davrdagi Xitoy o'rtasidagi siyosiy va madaniy aloqalar yoritilgan. Lyu Chjishyaoning "Uyg'urlar tarixi" asarida esa xoqonlikning tashkil topishi, rivojlanishi, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti, shuningdek, islom dinining qabul qilinishi masalalari keng tahlil etilgan. Qoraxoniylar sulolasining shakllanish jarayoni, ularning siyosiy hokimiyat tizimi, madaniy-ma'naviy yuksalishi hamda islom sivilizatsiyasini Markaziy Osiyoda mustahkamlashdagi o'rni o'rganilgan. Uyg'ur manbalarida Qoraxoniylarning turkiy xalqlar orasidagi siyosiy mavqeyi, til va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi yoritilgan bo'lsa, Xitoy adabiyotlarida ularning Tan imperiyasi bilan bo'lgan diplomatik aloqalari, savdo yo'llari va chegaraviy siyosati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Yevropa tadqiqotchilari esa Qoraxoniylar davlatini ilk musulmon turkiy sulola sifatida baholagan hamda ularning islom madaniyati va siyosiy tizimga qo'shgan hissasini tahlil qilganlar. Maqola turli manbalar asosida tarixiy faktlarni solishtirgan holda, Qoraxoniylar davlati tarixining xalqaro ilmiy adabiyotlarda tutgan o'rnini yoritadi.

KALIT SO'ZLAR: *Qoraxoniylar davlati, turkiy xalqlar, Yettisuv, Isfijob, Sharqiy Turkiston, Farg'ona, "Qoraxon" atamasi, faxriy unvon, davlat boshqaruvi.*

ГОСУДАРСТВО КАРАХАНИДОВ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ КИТАЙСКОЙ, УЙГУРСКОЙ И ЕВРОПЕЙСКОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ ШКОЛ

АННОТАЦИЯ: В Китайской Народной Республике были проанализированы научные исследования, посвящённые истории Караханидского каганата. Основное внимание уделено активизации изучений данной темы с 1980-х годов, в частности научной деятельности профессора Вэй Лянтао, Лю Чжисьяо и Хаджи Нурхаджи. В труде Вэй Лянтао "Краткая история Караханидов" освещаются политические и культурные отношения между государством Караханидов и Китаем того времени. В работе Лю Чжисьяо "История уйгуров" подробно рассматриваются вопросы образования, развития, экономического и культурного прогресса каганата, а также принятие ислама. В данной статье исследуется процесс формирования Караханидского государства, его политическая система, культурно-духовный подъем и роль в укреплении исламской цивилизации в Средней Азии. В уйгурских источниках освещается политическое значение караханидов среди тюркских народов, их вклад в развитие языка и культуры, тогда как в китайской литературе приводятся сведения об их дипломатических отношениях с династией Цинь, торговых путях и пограничной политике. Европейские исследователи рассматривают Караханидское государство как первую мусульманскую тюркскую династию и анализируют его вклад в исламскую культуру и политическую систему. Статья, основываясь на различных источниках, сопоставляет исторические факты и раскрывает место Караханидского государства в международной научной литературе.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Государство Караханидов, тюркские народы, Жетысу, Исфиджаб, Восточный Туркестан, Фергана, термин «Карахан», почётный титул, государственное управление.*

THE KARAKHANID KHANATE: A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE VIEWS OF CHINESE, UYGHUR, AND EUROPEAN RESEARCH SCHOOLS

ABSTRACT: In the People's Republic of China, scientific studies dedicated to the history of the Karakhanid Khaganate have been analyzed. The main focus is on the intensification of research on this topic since the 1980s, particularly on the scholarly activities of Professor Wei Liangtao, Liu Zhixiao, and Haji Nurhoji. In Wei Liangtao's work "A Brief History of the Karakhanids", the political and cultural relations between the Karakhanid State and China of that period are examined. In Liu Zhixiao's "History of the Uighurs", the formation, development, economic and cultural progress of the Khaganate, as well as the adoption of Islam, are thoroughly analyzed. This article examines the formation process of the Karakhanid state, its political system, cultural and spiritual development, and its role in strengthening Islamic civilization in Central Asia. Uighur sources highlight the political significance of the Karakhanids among Turkic peoples and their contribution to the development of language and culture, while Chinese literature provides information about their diplomatic relations with the Qin dynasty, trade routes, and border policies. European scholars regard the Karakhanid state as the first Muslim Turkic dynasty and analyze its contribution to Islamic culture and the political system. Based on various sources, the article compares historical facts and reveals the Karakhanid state's place in international scholarly literature.

KEYWORDS: *Karakhanid State, Turkic peoples, Jetisu, Isfijab, Eastern Turkestan, Fergana, "Qarakhān" term, honorary title, state administration.*

KIRISH. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgach, ma'naviy-ma'rifiy hayotda ijobiy tub burilish yuz berdi. Jumladan, o'zbek xalqining boy davlatchilik tarixi, uning moddiy va ma'naviy merosini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Birinchi Prezident I.A. Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida O'zbekiston tarixchilari oldiga bir qator ilmiy nazariy va amaliy dolzarb muammolarni tadqiq etish vazifasini qo'ygan edi. Shunga asoslangan holda Qoraxoniylar davlati haqida muammoli voqealarni o'rganamiz. Qoraxoniylar davlatining ko'p asrlik (766–1212-yillar) faoliyat yuritishi O'rta Osiyo xalqlarining, xususan o'zbek xalqining tarixida munosib iz qoldirdi. Qoraxoniylar davlati juda ko'p turkiy qabilalarning o'zaro ittifoqidan yuzaga kelgan edi. Ushbu yirik davlat tarkibidagi o'troq va chorvador ko'chmanchi aholining bir-birlari bilan yaqinlashib, aralashib borishlari natijasida o'zbek xalqining xalq sifatida shakllanishi o'z nihoyasiga (XI–XII asrlar) yetgan edi. Demak, Qoraxoniylar davlati tarixini chuqur o'rganmasdan va unga doir masalalarni yechmasdan turib, o'zbek xalqi shakllanish jarayonining muhim bosqichlarini ham asoslab berish juda mushkuldir. Bundan tashqari, Qoraxoniylarning O'zbekiston davlatchiligi tarixida tutgan o'rni alohida ahamiyatga ega bo'lib, bunda ushbu davlatning qabilalar ittifoqi darajasidagi oddiy urug'-qabilaviy udumlarga asoslangan boshqaruv tizimini saltanat darajasigacha rivojlanib, yuksalib borganligi e'tiborga molikdir.

Qoraxoniylar davlat boshqaruvining bu rivojlanish bosqichlari o'z mohiyatiga ko'ra qadimdan mavjud bo'lib kelgan turkiy xalqlarning an'anaviy boshqaruv uslubining tub zamiriga asoslangan holda, bu boshqaruv uslubini yanada takomillashtirib, uni yangicha taraqqiyot bosqichiga olib chiqqan. Ushbu davlatning boshqaruv tizimida keng qo'llangan "qoraxon", "tavg'achxon", "eloqxon" va "tegin" kabi atamalarning mazmun-mohiyati ham davlatchiligimiz taraqqiyotining tarixiy jarayonlari mahsuli sifatida shu davrning voqeligini o'zida ifoda etadi. Shunday ekan, mazkur davlat boshqaruv tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganib, tushunib yetsakgina, davlatchiligimiz tarixining rivojlanishidagi tizimiylikni ko'rsata olgan bo'lamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Qoraxoniylar davlatining ilmiy o'rganilishi asosan uchta yirik ilmiy maktabga tayanadi: Sovet turkologiyasi, O'zbekiston milliy tarixshunosligi va G'arb turkologiyasi. Ilmiy tadqiqotlarning poydevori V.V.Bartoldning fundamental ishlarida qo'yilgan bo'lib, u davlatning tashkil topishi, etnik tarkibi va siyosiy tarixiga oid ilk ilmiy munozaralarni boshlab bergan. Biroq, Qoraxoniylar tarixining ko'plab ixtilofli masalalari, ayniqsa, sulolaning kelib chiqishi, etnik asosi (qarluqlar, yag'molar, chigillar) va "Qoraxon" atamasining mazmun-mohiyati hali ham to'liq yechim topmagan [4,5,6].

Keyingi o'rganishlar zanjirida Rossiya va Markaziy Osiyo olimlari, xususan, numizmatika asosida o'ta muhim ishlarni amalga oshirgan Yelena A.Davidovich va Boris D. Kochnevlarning xizmati alohida ajralib turadi. Davidovich va Kochnev tadqiqotlari xoqonlarning xronologiyasi, genealogiyasi va faxriy unvonlarini (masalan, "qoraxon", "tavg'achxon", "eloqxon") tahlil qilish orqali Qoraxoniylar davlat boshqaruv tizimining murakkabligini ochib berdi. O. Korayev va M.N. Fedorovning umum-lashtiruvchi ishlari ham davlatning siyosiy va iqtisodiy asoslarini o'rganishda muhim hisoblanadi. O'zbekiston tarixshunosligida esa Q. Shoniyozov qarluqlar masalasini, A.R. Muhammadjonov esa keng ko'lamli tarixiy tahlilni olib borganlar.

G'arb ilmiy doiralarida esa, asosan, Piter B.Golden (1992; 2011) kabi turkologlarning etnik kelib chiqish, etnogenez va jahon tarixi kontekstida o'rganish uslubi ustuvorlik qiladi. B.D. Kochnevning ingliz tilidagi maqolasi (The Origins of the Karakhanids. A Reconsideration, 1996) aynan sulolaning kelib chiqishiga oid munozarali fikrlarni qayta ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Umuman olganda, tadqiqotlar tarixiy yilnomalar (jumladan, Narshaxiyning "Buxoro tarixi") va yozma manbalar bilan bir qatorda, eng ishonchli manba hisoblangan numizmatik topilmalar asosida olib borilib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, boshqaruv tizimi va Islom madaniyatiga qo'shgan hissasi turli rakurslarda yoritilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Qoraxoniylar davlat tarixini ilmiylik asosida chuqur o'rganishga kirishilgan. Bu o'rinda albatta, V.V. Bartol'dning xizmatlarini ham eslab o'tish joizdir. V.V.Bartold Sharq xalqlari tarixi, geografiyasi, madaniyati va etnografiyasiga oid jami 685 ta asarni nashr etgan bo'lsa, shulardan 320 tasi O'rta Osiyo tarixiga bag'ishlangan. Bu asarlarda ushbu hududda yashagan turkiy xalqlarning tarixiga oid muhim masalalar yoritilgan. Jumladan, uning asarlarida qoraxoniylar sulolasi, davlatning tashkil topishi, uning siyosiy tarixi, davlat tarkibidagi qabilalarning etnik asosi, ularning kelib chiqishiga doir bir qancha fikrlar manbalar asosida keltirilgan. Shu bilan birga uning asarlarida ba'zi bir noaniq fikrlar ham qayd etilgan. Masalan, olim bir joyda Qoraxoniylar davlatini tashkil topishida qarluqlarning hissasi katta bo'lganligini qayd etgan holda, ikkinchi joyda davlatning asoschilari uyg'urlar yoki yag'molar edi, deb ta'kidlaydi. Undan tashqari davlatning tashkil topgan sanasini 940-yillar deb belgilagan. Bu belgilangan sana esa undan keyingi ko'pgina tadqiqotchilarning asarlarida qat'iy muhrlanib qolgan. V.V. Bartold butun Sharq xalqlari, xususan O'rta Osiyo xalqlari tarixini birinchilardan bo'lib, umumiy tarzda, ilmiy jihatdan chuqur o'rgangan olimdir. Shuning uchun uning asarlarida ba'zi bir masalalarda bunga

o‘xshash noaniqliklar bo‘lishi tabiiydir. Albatta, bu kamchiliklarga qaramasdan olimning asarlari O‘rta Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishda bebaho manba hisoblanadi [4].

Qoraxoniylar davlati haqida bir qator olimlar tadqiqot ishlari olib borgan bo‘lsalar-da, ular o‘rtasida mazkur davlat tarixiga oid ba’zi bir masalalarda o‘zaro ixtilofli, bir-biriga zid bo‘lgan fikrlar ham yo‘q emas. Qoraxoniylar davlati tarixini yoritishga oid barcha asarlarda bu munozarali masalalar o‘z aksini topgan. Buning natijasida esa Qoraxoniylar davlati tarixini yoritishda juda ko‘p chalkashliklar va noaniqliklarga yo‘l qo‘yilgan. Ayniqsa, ushbu davlatning dastlabki davri, ya’ni davlat qachon va qaysi etnik guruh tomonidan tashkil etilganlik masalasida tadqiqotchilarning har biri o‘z fikrini asoslashga harakat qilganlar. Davlat xoqonlari nomlaridagi faxriy unvonlarning ma’no-mazmuni ham shu kungacha to‘liq yoritilganicha yo‘q [1]. Ushbu tadqiqotdan ko‘zlangan asosiy maqsadimiz yuqoridagi munozarali masalalarni chuqur o‘rganib, ularni quyidagi keltirilgan tartibda yoritishga harakat qilishdir: Qoraxoniylar davlati Yettisuv, Isfijob, Sharqiy Turkiston, Farg‘ona hududlarida vujudga kelgan ekan, mazkur davlatning shu hududlarda yashovchi barcha o‘troq va chorvador ko‘chmanchi turkiy aholining o‘zaro ittifoqi uyushmasidan tuzilganligini keng yoritish; xoqonlikning o‘ziga xos tarixini hisobga olib, uning ilk va rivojlangan bosqichlarini bo‘lib o‘rganish. “Qoraxon” atamasi va davlatning nomlanish masalasiga ko‘ra, ushbu atamani hukmron sulolaning emas, balki faxriy unvon nomi bo‘lganligini ko‘rsatib, uning mazmun-mohiyatini tahlil etish; davlat hukmdorlari nomida keng qo‘llangan ulug‘lovchi faxriy unvon va nufuzli darajalarning ma’no-mazmunini tahlil qilish va buni davlat boshqaruv sohasi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatish; Qoraxoniylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy asosiga e’tibor berish; Qoraxoniylar davlat boshqaruvining oliy va mahalliy hokimiyat tizimiga bo‘linganligini hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil etish.

Vey Liangtaoning tadqiqoti 2000-yilda Qashqarda uyg‘ur tiliga tarjima qilinib, “Qoraxoniylar tarixidan bayon” nomi bilan nashr etilgan. Asar 378 betdan iborat bo‘lib, XXRda xitoy tilida amalga oshirilgan barcha ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirgan holda yozilgan. Muallif xitoy manbalarida ilgari noma’lum bo‘lgan yangi tarixiy ma’lumotlarni ilmiy muomalaga kiritgan. Ayniqsa, Qoraxoniylar davlati bilan o‘sha davrdagi Xitoy o‘rtasidagi siyosiy, diplomatik va iqtisodiy munosabatlarga oid faktlar alohida e’tiborga loyiqdir. Asar 13 bobdan iborat bo‘lib, unga muhim tarixiy voqealar yilnomasi, Qoraxoniy xoqonlarining taxtga chiqish tartibi va sanalari haqidagi ilova ham kiritilgan. Ilmiy jihatdan, ushbu tadqiqot Qoraxoniylar davlati tarixini o‘rganishda yangi bosqichni boshlab bergan bo‘lib, Sharq va Markaziy Osiyo tarixiy aloqalarini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u xitoy manbashunosligining turkiy sulolalar tarixini o‘rganishda tutgan o‘rnini mustahkamlaydi [7].

Qoraxoniylar davlati kelib chiqishi — bu davlat Yettisuv, Isfijob, Sharqiy Turkiston va Farg‘ona hududlarida yashagan o‘troq va ko‘chmanchi turkiy qabilalarning siyosiy ittifoqi natijasida tashkil topgan. Demak, davlat birgina sulola emas, balki turkiy elatlarning umumiy manfaatlarini ifoda etuvchi siyosiy uyushma bo‘lgan. “Qoraxon” atamasining mazmuni — tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Qoraxon” so‘zi hukmron sulola nomi emas, balki faxriy unvon sifatida qo‘llanilgan. Bu unvon davlat boshlig‘ining oliy mavqeyini va siyosiy hokimiyatini ifoda etgan. Davlat boshqaruv tizimi — Qoraxoniylar davlati markaziy (oliy) va mahalliy hokimiyat tizimlariga bo‘lingan murakkab boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan. Har bir daraja o‘ziga xos siyosiy vakolat va ijtimoiy vazifalarga ega bo‘lgan. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot — Qoraxoniylar davrida iqtisodiyotning asosini dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo tashkil etgan [8]. Ayniqsa, Ipak yo‘li orqali amalga oshgan xalqaro savdo mamlakat taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan. Madaniy va ilmiy taraqqiyot — Davlat davrida arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan asarlar orqali madaniy yuksalish yuz bergan. Ayniqsa, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarning ilmiy merosi bu davrning yuksak ilmiy salohiyatini ko‘rsatadi. Qoraxoniylar tarixini o‘rganishda arab, fors va turkiy tillardagi yozma manbalar, shuningdek numizmatik va arxeologik topilmalar asosiy manbalar bo‘lib xizmat qilgan. Umuman olganda, tadqiqot natijalari Qoraxoniylar davlati Markaziy Osiyodagi ilk turkiy davlatchilikning yuksak bosqichini ifoda etganini, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan o‘z davrining ilg‘or davlatlaridan biri bo‘lganini ko‘rsatadi.

Tadqiqotchi O‘mer Soner Xunkaning Qoraxoniylar davlatiga oid fundamental asari Markaziy Osiyo tarixshunosligida o‘rganilishi lozim bo‘lgan muhim bo‘shliqni to‘ldiradi. Muallif Qoraxoniylar xoqonligining tashkil topishidan to qulashiga qadar bo‘lgan siyosiy va madaniy jarayonlarni kompleks tahlil qilishga alohida e’tibor qaratadi. Kitobning “Kirish” qismida Islom, Xitoy, Arman va Ossuriya manbalarining chuqur tanqidiy manbashunoslik tahlili, shuningdek, numizmatik va epigrafik (yozuvlar, vaqfiyalar) ma’lumotlarning solishtirilishi asarning ilmiy asosini mustahkamlaydi. Ayniqsa, xoqonlikka oid yozilgan xronikalarning mazmuni va nashr etilishiga e’tibor berilishi, Bartold kabi salmoqli ilmiy maktablar izlanishlari bilan birga XX asr oxiridagi zamonaviy turkologik yondashuvlarni (59-64) umumlashtirishi, ushbu asarni mavzuga oid asosiy

ma'lumot manbasiga aylantiradi [21].

Asarda Qoraxoniylar davlatining shakllanishi, etnik asoslari va islomni qabul qilish jarayoniga e'tibor qaratiladi. Muallif sulola nomi va kelib chiqishiga oid munozarali masalalarni, xususan, Qarluq, Chigil va Yag'ma kabi asoschi qabilalarning rolini aniq Islom manbalari doirasida ko'rib chiqadi. Satuq Bug'ra Qora Xoqon Abdul-Karim davrida Islom dinining qabul qilinishi va mintaqaga tarqalishi, shuningdek, Xoqonlikning Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar kabi qo'shni kuchlar bilan olib borgan murakkab urushlari va diplomatik ittifoqlari chuqur tahlil qilinadi. Bu tahlillar Qoraxoniylar davrining butun Markaziy Osiyo siyosiy dinamikasida hal qiluvchi rol o'ynaganini ko'rsatadi [21].

Asarda xoqonlikning G'arbiy va Sharqiy qanotlarga bo'linib ketishidan to 1212-yilda butunlay qulashigacha bo'lgan ichki va tashqi siyosiy kurashlar yoritiladi. Tamg'ach Xon Ibrohim Nasr davridan boshlangan ichki siyosiy parchalanishlar, Qoraxitoylar hukmronligining o'rnatilishi va sulolaning so'nggi vakili Kilich Arslan Hoqon Usmon Ibrohim atrofidagi voqealar batafsil bayon etilgan. Xunkanning ushbu asari Qoraxoniylar tarixiga nafaqat siyosiy voqealar zanjiri, balki Markaziy Osiyoda turkiy-islom sivilizatsiyasining shakllanishi-dagi burilish nuqtasi sifatida baho berganligi bilan ham o'ziga xos ilmiy ahamiyatga ega [21].

Peter B. Goldenning tadqiqotlarida turkiy xalqlarning etnik shakllanishi va o'rta asrlarda davlat tuzilishini o'rganishda asosiy manba hisoblanadi. Ularda turkiy etnik guruhlarning kelib chiqishi, migratsiyasi va siyosiy birlashuvlarini batafsil yoritadi. Qoraxoniylar haqida berilgan ma'lumotlar asarning markaziy qismida joylashgan bo'lib, ularni ilk musulmon turkiy sulola sifatida ta'riflaydi. Golden Qoraxoniylarni Qarluq qabilasi va boshqa turkiy guruhlar ittifoqidan shakllangan konfederatsiya sifatida ko'rsatadi, bu IX asr oxirida Sharqiy Turkiston (hozirgi Sinkxon) hududida boshlangan. Uning tadqiqoqtlarida Qoraxoniylar sulolasining 840-yillarda Uyg'ur xoqonligi qoldiqlaridan kelib chiqqani, X asrda islomni qabul qilgani (Satuk Bughraxon davri, 934-yil) va Samarqand, Balasag'un kabi shaharlarni egallashi haqida keng ma'lumot berilgan.

Golden 100 dan ortiq Xitoy, arab va fors manbalarini solishtirib, Qoraxoniylarning etnik kelib chiqishini qayta ko'rib chiqadi. Ularning davlat tuzilishi – ikki markazli (Sharqiy va G'arbiy Qoraxoniylar) va Ipak yo'li savdosidagi roli batafsil tahlil etilgan. Golden shuningdek, Qoraxoniylarning Samoniylar (999-yil) va Gaznaviylar bilan urushlarini, shu orqali Markaziy Osiyoda turkiy hokimiyatni mustahkamlaganini ta'kidlaydi. Golden asarining ahamiyati shundaki, u Qoraxoniylarni faqat mahalliy hodisa emas, balki Yevroosiyo va Yaqin Sharqda turkiy etnik jarayonlarning bir qismi sifatida ko'rsatadi [16].

Goldenning boshqa bir tadqiqot ishida Qoraxoniylarni "tarixning markazi" (pivot of history) deb atalgan mintaqada ko'chmanchi va savdogar xalqlar o'rtasidagi ko'prik sifatida ta'riflaydi. Golden Qoraxoniylarni X asrda Qashqar atrofida tashkil topgan ilk musulmon turkiy davlat sifatida ko'rsatib, ularning hududi Tarim havzasi (Sharqiy Turkiston) dan Oks (Amudaryo) gacha cho'zilganini ta'kidlaydi. Golden Qoraxoniylarning Samoniylarga qarshi bosqinlari (992–999 yillar), Buxoro va Samarqandni egallashi, shuningdek, Saljuqiylar (11-asr) ta'siri ostidagi vassal holati haqida batafsil ma'lumot berilgan [16].

Boris D.Kochnevning "Der Islam" jurnalida chop etilgan maqolasi Qoraxoniylar kelib chiqishini qayta ko'rib chiqishga bag'ishlangan bo'lib, numizmatik dalillarga asoslangan. Kochnev Qoraxoniylarni Qarluq konfederatsiyasining rahbar qismi sifatida ko'rsatib, chigil va Yag'mo qabilalarini asosiy komponentlar deb hisoblaydi. Maqolada 991–1209 yillarga oid 200 ta tanga tahlil etilib, sulola rahbarlarining genealogiyasi rekonstruksiya qilingan. Kochnev Pritsakning nazariyasini qo'llab-quvvatlab, Qoraxoniylarning IX asrda Xitoy-Mongoliya chegarasidan G'arbga ko'chib o'tganini isbotlaydi. Ularning Afrosiyob (Alp Er Tunga) avlodlari deb hisoblagani va "al-Afrosiyab" sulolasi deb nomlagani numizmatik yozuvlarda tasdiqlangan. Maqolaning ahamiyati – Qoraxoniylar xronologiyasini 20 yil oldinga surishi (tashkil topishi 840-yil emas, balki 820-yillar), bu Markaziy Osiyo arxeologiyasiga yangi yondashuv berdi [17].

XULOSA. Qoraxoniylar davlati tarixi uyg'ur, xitoy va Yevropa manbalari hamda ilmiy adabiyotlari talqinida o'ziga xos ilmiy yondashuv va qarashlar tizimini aks ettiradi. Mazkur manbalar orqali ushbu davlatning siyosiy, etnik va madaniy shakllanish jarayoni, shuningdek, uning Markaziy Osiyo tarixidagi o'rni yanada chuqurroq ochib beriladi. Xitoy tarixchilari asarlarida bu davlatning tashkil topishida turkiy qabilalar, xususan, yag'mo, turg'esh, chigil va boshqa etnik guruhlarning o'rni alohida ta'kidlangan. Shu bilan birga, Xitoy yozma yodgorliklarida Qoraxoniylar davlatining Tang sulolasi davridagi diplomatik munosabatlari, shuningdek, Ipak yo'li orqali olib borilgan iqtisodiy almashinuvlar keng yoritilgan. Uyg'ur manbalarida esa Qoraxoniylar davlati turkiy xalqlarning siyosiy birligi sifatida ko'rsatiladi. Uyg'ur tarixiy yozuvlarida Qoraxoniylar hukmronligi davri turkiy yozuv, diniy e'tiqod va madaniy qadriyatlarning tiklanish davri sifatida talqin etilgan. Bu manbalarda "Qoraxon" unvoni ko'proq diniy-siyosiy mazmun kasb etib, hukmdorlarning islomni qabul qilgan birinchi turkiy sulola vakillari ekanligi alohida

e'tirof etiladi. Yevropa olimlarining qarashlarida esa Qoraxoniylar davlati turkiy xalqlarning ilk feodal davlat tizimi sifatida baholanadi. Tadqiqotchilar asarlarida Qoraxoniylar davlati Markaziy Osiyo tarixida turkiy-islam uyg'unligining ilk shaklini yaratgan siyosiy tuzilma bo'lib, keyingi turkiy davlatlarning Shuningdek, Yevropa manbalarida Qoraxoniylar davrining iqtisodiy asoslari dehqonchilik, chorvachilik va xalqaro savdo aloqalari, ayniqsa Ipak yo'li orqali olib borilgan savdo faoliyati keng o'rganilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Maxmudov Begzod. Qoraxoniylar davlatchilik tizimining xususiyatlari. Toshkent. 2010

2.Turdeyeva D. Qoraxoniylar xoqonligi tarixi xitoy xalq respublikasi olimlari tadqiqotlarida. Toshkent 2021.

3.Muhammadjonov A. Qoraxoniylar davlatchilik tizimi. Toshkent. 2016

4.Бартолд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Собрание сочинений. – Том И. – Москва: Издательство восточной литературы, 1963.

5.Бартолд В.В. Очерк истории Семиречья // Собрание сочинений. – Том ИИ. Часть 1. – Москва: Издательство восточной литературы, 1963. – С. 25–1020.

6.Бартолд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии // Собрание сочинений. – Том В. – Москва: Наука, 1968.

7.Вэй Лянтао. Краткое изложение истории Караханидов. (Перевод с китайского). Кашгар, 2000. – 378 с.

8.Davidovich Ye. A. Voprosy khronologii i genealogii Karakhanidov vtoroy poloviny XII v. // Srednyaya Aziya v drevnosti i srednevekov'ye (istoriya i kul'tura). M., 1977

9.Davidovich, E. A. (1998), „The Karakhanids", in Asimov, M.S.; Bosworth, C.E. (muh.), History of Civilisations of Central Asia), 4 part I-jild, UNESCO Publishing, 120-bet, ISBN 92-3-103467-7

10.Korayev O., Istoriya Karaxanidskogo kaganata X – nachalo XIII vv., Frunze, 1983;

11.Kochnev B. D. Karakhanidskiy kaganat // Ocherki po istorii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tashkent: Shark, 2001

12.Kochnev B. D. Shash (Chach) i Ilak pri Karakhanidakh (po numizmaticheskim dannym) // Drevnyaya i srednevekovaya kul'tura Chacha. Tashkent, 1979

13.Kochnev B. D., Karakhanidskiye monety: istochnikovedcheskoye i istoricheskoye issledovaniye. Avtoreferat-dissertatsiya doktora istoricheskikh nauk, Moskva, 1993

14.Kochnev B. D., Numizmaticheskaya istoriya Karakhanidskogo kaganata (991-1209 gg.). Moskva „Sofiya", 2006

15.Golden, Peter B. (1992), An Introduction to the History of the Turkic Peoples: Ethnogenesis and State-Formation in Medieval and Early Modern Eurasia and the Middle East, OTTO HARRASSOWITZ · WIESBADEN

16.Kochnev, Boris D. (1996) "The Origins of the Karakhanids. A Reconsideration", Der Islam, 73: 352-7.

17.Fedorov M. N. Karakhanidskaya numizmatika kak istochnik po istorii Sredney Azii kontsa X – nachala XIII vv. Avtoreferat doktorskoy dissertatsii. Novosibirsk. 1990.

18.Shoniyozov Q., Qarluq davlati va qarluqlar, T., 1999

19.Hunkan Ц.S. Turk xoqonligi qoraxoniylar. Istanbul 2015. Paradigma Akademiyasi nashrlari, 504 bet (3 ta rasm va 3 ta xarita bilan). ISBN: 9786059743082.